

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК \* SCIENTIFIC BULLETIN

BUXORO PSIXOLOGIYA VA  
XORIJIY TILLAR INSTITUTI




# ILMIY AXBOROTNOMASI



ISSN 3030-3710 (P)  
ISSN 3030-3095 (E)

№ 3, 2025



<http://buxpxti.uz>



**Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich**

Buxoro davlat universiteti

Pedagogika fanlari doktori, professor

**Nekboyev Xurshid Xoliyorovich**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Pedagogik fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

## MEDIATA'LIM AMALGA OSHIRISHDAGI ZAMONAVIY METODLAR TAVSIFI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mediata'lim metodlari, media axborot bilan ishlashning interfaol shakl va metodlari, mediata'lim kontekstida interfaol ta'limning asosiy tamoyillari ichida ta'lim jarayoni ishtirokchilarining dialogga asoslangan o'zaro ta'siri, ommaviy kommunikatsiya vositalari (media) axborotni yaratish, saqlash, tarqatish, idrok qilish, muallif va ommaviy auditoriya o'rtasida axborot almashish vositasi hisoblanishi, mediata'lim, maktab o'quvchilari va talabalar tomonidan ommaviy axborot vositalari qonuniyatlarini o'rganishlarini yoqlaydigan pedagogika fani doirasidagi maxsus yo'nalish sifatida, o'quvchi va talabalarga media dunyosi hamda mediamadaniyat asarlariga moslashishi ommaviy axborot vositalari tilini o'zlashtirish mediamadaniyat asarlarini tahlil qilish fikr mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** pedagogika, pedagogik texnologiyalar, metod, axborot, mediata'lim, mediamatn, media material, ma'ruza, suhbat, munozara.

## ОПИСАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ РЕАЛИЗАЦИИ МЕДИАОБРАЗОВАНИЯ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются методы медиаобразования, интерактивные формы и способы работы с медиаинформацией, диалоговое взаимодействие участников образовательного процесса в рамках основных принципов интерактивного образования в контексте медиаобразования, средства массовой коммуникации (СМИ) как средство информационного обмена между автором и массовой аудиторией, медиаобразование, школьники и студенты. Как специальное направление в рамках педагогики, поддерживающее изучение законов медиа, адаптацию к медиамир и произведениям медиакультуры, усвоение медиаязыка, анализ произведений медиакультуры.

**Ключевые слова:** педагогика, педагогические технологии, метод, информация, медиаобразование, медиатекст, медиаматериал, лекция, беседа, дискуссия.

## DESCRIPTION OF MODERN METHODS IN THE IMPLEMENTATION OF MEDIA EDUCATION

**Annotation.** This article presents media education methods, interactive forms and methods of working with media information, the main principles of interactive education in the context of media education, including the interaction of participants in the educational process based on dialogue, the creation, storage, distribution, perception of information by mass media (media), the exchange of information between the author and the mass audience, media education as a special direction within the framework of pedagogical science that supports the study of the laws of mass media by school-children and students, the adaptation of students and students to the media world and works of media culture, the mastery of the language of media, the analysis of works of media culture, and opinions.

**Keywords:** pedagogy, pedagogical technologies, method, information, media education, media text, media material, lecture, conversation, discussion.

**Kirish.** Mediata'lim jarayonida qo'llanishga nisbatan metodika mazkur ta'lim mazmuni hamda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyati doirasida media madaniyat asoslariga, variativlik, improvizatsiya, o'qitishning dialogik shakli, ta'lim jarayonining tarkibiy qismlariga qo'yiladigan



talablarni hisobga olgan holda, o'rgatish jarayoni sifatida ko'riladi.

**- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.**

Pedagogik texnologiya deyilganda "qo'yilgan ta'lim maqsadlariga muvafaqqiyatli erishish imkonini beradigan nazariy asoslangan ta'lim-tarbiya jarayonlarini qayta ishlab chiqarish vosita va metodlari majmui tushuniladi. Pedagogik texnologiya faoliyat metodlariga (didaktik jarayonlar) ko'rsatmalar, mazkur faoliyat tatbiq etiladigan shart-sharoitlar (ta'limning tashkiliy shakllari) va mazkur faoliyatni amalga oshirish vositalaridan iboratdir" [1].

Mediata'lim metodlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

- olingan bilimlar manbalari bo'yicha: so'z, so'zlash bilan bog'liq (ma'ruza, hikoya, suhbat, tushuntirish, munozara); qo'rgazmali (mediamatnlarni illyustratsiya va namoyish qilish); amaliy (media materiallari asosida turli amaliy topshiriqlarni bajarish);

- bilish faoliyati darajasi bo'yicha: tushuntirishga oid-illyustrativ (pedagog tomonidan media to'g'risida ma'lumot berilishi, auditoriya tomonidan mazkur ma'lumotning idrok qilinishi va o'zlashtirilishi); reproduktiv (pedagog tomonidan media materiallari asosida turli mashqlar va topshiriqlarni, o'quvchilar ularni yechishni usullarini o'rganishi uchun, ishlab chiqishi va qo'llashi), muammoli (tanqidiy tafakkurni rivojlantirish maqsadida muayyan vaziyatlar yoki mediamatnning muammoli tahlili); qisman-izlanuvchan yoki evristik, tadqiqotchilikka oid (ta'limda izlanuvchan-ijodiy faoliyatini tashkil qilish) [2]. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan mediata'limda so'zga oid, ko'rgazmali, reproduktiv, tadqiqotchilikka oid, evristik, muammoli va o'yinli usullar eng keng tarqalgan hisoblanadi.

Mediata'lim jarayonida turli pedagogik metodlardan foydalaniladi. Ta'lim metodlari – "ta'lim metodlarini amalga oshirish jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'zaro ta'sirining aniq operatsiyalari (harakati). O'qitish usullari predmetli mazmuni, ular tashkil qiladigan bilish jarayoni bilan tavsiflanadi va qo'llash maqsadi bilan shartlab beriladi. O'quv fani darajasida usullarni birga qo'llash metodikani va xatto bir butun metodik tizimlarni tashkil qiladi" [1].

Pedagogik metodlar umumiy didaktik usullar bilan belgilanadi va har bir aniq metodika yoki pedagogik texnologiya pedagogik usullarni birga qo'llashning ko'p turlarini o'z ichiga olishi mumkin. Ularni tanlash ta'lim mazmunining o'ziga xos xususiyatlari, o'quv materialni o'zlashtirish ko'rinishlari va rejalashtirilgan darajalari, ularni amalga oshirishning mavjud vositalari, u yoki bu metodni qo'llashning samaradorligi darajasi va shu kabilarlar bilan shartlab beriladi.

Mediata'lim jarayonining metodik usullari ijodiy va o'yinli topshiriqlarning davrlariga (blok, modullar) asoslanadi, ulardan o'quv va darsdan tashqari faoliyatda foydalaniladi. Mediata'lim jarayonida u yoki bu metodlardan foydalanish auditoriyaning yoshga oid va individual xususiyatlari, uning media olamdagi ehtiyojlari va qiziqishlari, media bilan muloqot qilish motivlari, media ma'lumotlarni idrok qilish darajasi va shu kabilarlar bilan shartlab beriladi. Shuningdek, muayyan metodik usullarni tanlash mediata'lim jarayonini amalga oshirishda pedagog o'z oldiga qo'yadigan maqsad va aniq vazifalar bilan bog'liq (bilishga qiziqishni, kommunikativ ko'nikmalarni, ijodiy qobiliyatlarini va shu kabilar rivojlantirish). Mediata'limda muayyan pedagogik metodlarni tanlashning muhim jihati mediata'lim bo'yicha mashg'ulotlarda pedagog tomonidan qanday materialdan foydalanilishi hisoblanadi (bosib chiqarilgan, audiovizual media, kompyuter texnologiyalari va shu kabilar). Turli media materiallarning integratsiyasini hisobga olganda, mediata'lim mashg'ulotlari jarayonida ko'proq turli medialar o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan majmuaviy metodlardan foydalaniladi.

Mediamateriallar asosidagi ijodiy topshiriqlar o'qitish, moslashtirish, rivojlantirish va boshqarish funksiyalarini bajaradi:

- o'qitish funksiyasi mediamatnlarni idrok qilish va tahlil qilish nazariyalari, qonunlari va metodlari haqidagi bilimlarni o'zlashtirishga qaratilgan;

- moslashtiruvchi funksiya mazkur bilimlarni boshqa vaziyatlarda qo'llash qobiliyatiga qaratilgan;

- rivojlantiruvchi funksiya shaxsning motivatsion (kompensatsiya qiluvchi, terapevtik, rekreativ va shu kabilar), idrokka oid va boshqa xususiyatlar va sifatleri, media bilan ijodiy aloqa qilish tajribasiga qaratilgan;



– boshqarish funksiyasi butun mediata'lim jarayoni uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratishga qaratilgan [3].

Mediata'lim amaliyotida faoliyatning turli ko'rinishlaridan foydalanish mumkin, bular: deskriptiv (media asar mazmunini so'zlab berish), tasniflashga oid (mediamatnning tarixiy va ijtimoiy-madaniy kontekstdagi o'rni aniqlash), tahliliy (mediamatn tuzilishi, tilini, muallif nuqtai nazarini tahlil qilish), shaxsiy (media matn tug'dirgan munosabat, kechinma, his-tuyg'u, xotira, assotsiatsiyalarni tavsiflash), tushuntiruvchi-baholovchi (mediamatn, uning estetik, axloqiy va boshqa mezonlarga mos afzal jihatlari haqida mulohaza shakllantirish) [2].

#### **- Tadqiqot metodologiyasi.**

Mediamaterial asosida ijodiy topshiriqlarning variativligi, ulardan yaxlitligicha yoki bo'lib foydalanish imkoniyati, qo'llanilishining keng diapazoni (maktab, oliygoh va boshqa ta'lim muassasalari) pedagoglar ijodi uchun keng imkoniyatlarni ochib beradi. Xususan, mediata'lim metodikasida tanqidiy tafakkur metod va yo'llari, faol o'qitish texnologiyalari (bilish faoliyatini rag'batlantiruvchi metodlarni o'ziga olgan), interfaol texnologiyalar va boshqalar faol qo'llaniladi.

Ma'lumki, bilim orttirish faol jarayondir. "Bilim va ma'lumot o'rtasidagi chegara aynan ma'no chizig'idan o'tadi, u borliqning beshinchi o'lchami hisoblanadi (makonning uch o'lchovi, plyus vaqt, plyus ma'no), ya'ni aylantirilgan, affektiv bo'yalgan hayot makoni va hayot vaqti xoronotopi (makon va vaqt bog'langanligi)" [4]. Ma'lumot olish jarayonida inson mavjud bilimlardan foydalanadi va ularni faollashtiradi, bunda "ko'lam kengayib borayotgan bilimlar tizimini" quradi. Shuning uchun bilim har doim muayyan shaxsga tegishli, ya'ni shaxsiy va muayyan ma'noda noyob hisoblanadi. Ushbu bilimlarning tuzilishlar yoki sxemalari – olam tabiati haqidagi shaxsiy ichki tasavvurimizdir. Ularni boshqa sxemalar bilan birlashtirib, yangi bilimlarni yaratamiz" [5]. Insonga ta'lim olish va ma'lumotni (masalan, media ma'lumot) iste'mol qilish vositasida beriladigan bilimlar – bir qaraganda, turli, iste'mol sohasida o'ziga xos xususiyatlarga ega jarayonlar bo'lib tuyuladi. Shu bilan birga axborot oqimi doimiy ravishda kengayib borayotgan zamonaviy sharoitda mazkur tushunchalar bir-biri bilan yanada bog'lanib bormoqda. Ushbu ma'noda har qanday yangi ma'lumot mustaqil anglash uchun ozuqa bo'ladi, biroq anglash jarayonining o'zi bunda tugamaydi. "Bilim motivatsiya beradi, uningsiz inson tanqidiy fikrlay olmaydi" [6].

Shunday qilib, tanqidiy tafakkur g'oyalar va ma'lumotlar bilan o'zaro ta'sirga kirishishning tayanch nuqtasi, tabiiy usulga aylanadi: "oldimizda axborotni tanlash muammosi turibdi. Nafaqat uni egallash, balki tanqidiy baholash, anglash, qo'llash ko'nikmalari zarur. Yangi ma'lumotni olganda o'quvchilar uni turli nuqtai nazarlardan ko'rib chiqish, uning aniqligi va qimmatiga haqida xulosa chiqarishni o'rganishlari kerak" Ushbu ish mediata'lim kontekstida interfaol ta'limning asosiy tamoyillari, shakl va metodlaridan foydalanish bilan yaqindan bog'liq.

Interfaol ta'lim - "ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatida amalga oshiriladigan bilish metodi: ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari bir-biri bilan o'zaro ta'sirda bo'lishi, axborot almashinishi, muammolarni birgalikda hal qilishi, vaziyatlarni modellashtirishi, hamkasblar harakati va o'zining xulq-atvorini baholashi, muammoni hal qilish bo'yicha hamkorlikning real sharoitiga tushib qolishidir" [7]. Bunday nuqtai nazarlar mediata'lim sohasidagi tadqiqotchilar tomonidan ham qo'llab-quvvatlanadi. Masalan, mashhur britaniyalik media pedagog L. Masterman "o'qituvchi ham, o'quvchi ham bir-biriga biron narsalarni o'rgatishi, birgalikda tadqiqotchilarga aylanishi mumkin bo'lgan dialogning yangi yo'llarini rivojlantirish zarur", deb hisoblaydi.

#### **- Tahlil va natijalar.**

Mediata'lim kontekstida interfaol ta'limning asosiy tamoyillari ichida ta'lim jarayoni ishtirokchilarining dialogga asoslangan o'zaro ta'siri, guruhlarda kooperatsiya va hamkorlikka asoslangan ish, media asarlar bilan o'yin va treninglarni tashkil qilishlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Asosiy tamoyillarga mos mediata'lim jarayonining shakl va metodlarini quyidagicha taqdim qilish mumkin:

- munozarali: dialog, guruh va jamoada munozaralar, media madaniyat asarlarini muhokama qilish, vaziyatlarni tahlil qilish va shu kabilar;
- o'yinli: mediamaterial asosida adabiy-taqlidga oid, teatrlashtirilgan-vaziyatli, tasviriy-taqlidli kabi o'yinli topshiriqlar;



– media madaniyat asarlari materiali asosida munozarali va o'yinli ish shakllarini o'z ichiga olgan treninglar.

Interfaol ta'lim "o'quvchining uquv muhit bilan o'zaro ta'siriga, tajribaning o'zlashtirilayotgan sohasiga xizmat qiladigan o'quv muhitida quriladi" [1]. Ta'lim oluvchilar bilimga ega bo'lishining asosiy manbasi tajriba bo'lib, bunda pedagog yangi yechimlarni taklif qilmaydi, balki auditoriyani zarur ma'lumotlarni izlashga undaydi. Zero "ta'lim oluvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish uchun ta'lim beruvchining o'zi o'zgarishlarga, birga ijod qilish, birga bilishga tayyor bo'lgan tanqidiy fikrlaydigan shaxsga aylanishi lozim" [8].

Shunday qilib, hamkorlikda ijod qilish, dialog, interaksiya ta'lim jarayoni ishtirokchilariga – ta'lim oluvchilarga ham, ta'lim beruvchiga ham munozarali, o'yinli, treningli mashg'ulotlar jarayonida bir-biri bilan faol o'zaro ta'sir qilish, axborot almashish imkonini beradi.

Dialogga asoslangan o'zaro ta'sir, ma'lumki, interfaol ta'limning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Dialog faol axborot almashishni ko'zda tutadi, bilish, tarbiya va rivojlanish salohiyatiga ega bo'lgan birgalikda amalga oshiriladigan ijodiy faoliyat hisoblanadi: "ta'lim muammolarida dialog ta'limning maqsadi, natijasi va mazmuni, voqelikni bilish metodi va shaxs refleksiyasi hamda o'z-o'zini ro'yogba chiqarishini ta'minlaydigan didaktik-kommunikativ muhit sifatida ko'riladi" [9].

Dialog muvaffaqiyatli bo'lishining zarur sharti – unga ta'lim oluvchining ham, ta'lim beruvchining ham tayyorligi hisoblanadi. Dialogli o'zaro ta'sirni tashkil qilish ta'lim beruvchidan ochiqlik, o'z stereotiplarini yengish, tolerantlik (bag'rikenglik), har bir ta'lim oluvchini ijobiy qabul qilishni talab qiluvchi jiddiy ishni ko'zda tutadi. Ta'lim oluvchilarni dialog vaziyatiga kiritishning quyidagi shart-sharoitlari ajratib ko'rsatilgan:

- "ta'lim oluvchilarning dialogli muloqotga tayyorligini, ya'ni ularda bazaviy bilimlar, muloqot tajribasi, o'z fikrlarini bayon qilishga hamda o'z-galar fikrlarini ijobiy qabul qilishga ko'rsatmasi borligini aniqlash;

- tayanch motivlarini, ya'ni ta'lim oluvchilarni hayajonlantiruvchi dialog davomida bevosita yoki bilvosita ko'riladigan masalalar va muammolarni aniqlash;

- o'quv materialni muammoli-nizoli masalalar tizimiga aylantirish;

- dialog rivojlanishining turli variantlarini o'ylab chiqish;

- munozara ishtirokchilarining o'zaro ta'sir metodlari, ularning mumkin bo'lgan rollarini ("opponent", "tanqidchi", "ekspert" va shu kabilar) loyihalash;

- munozara natijalarini, shu jumladan baxs rivojlanishining mumkin bo'lgan "boshi berk" vaziyatlarini oldindan aytib berish.

Media axborot bilan ishlashning interfaol shakl va metodlarini (masalan, reproduktivga nibatan) afzalligini bilish. Birinchidan, interfaol metodlar media asar va uning mualliflari to'g'risida olingan bilimlarni tushunish, o'zlashtirish va ijodiy qo'llash: nafaqat ularni egallash jarayoniga faol kirishish, balki ulardan keyingi o'quv faoliyatida bevosita foydalanish imkonini beradi. Ikkinchidan, interfaol metodlar ishtirokchilarni birgalikda muammoni hal qilish jarayoniga, ijodiy izlanishlarga jalb qilinishiga yordam beradi. Bu auditoriya izlanishlarining faolligiga ta'sir qilib, muvaffaqiyat, ijodiy hamkorlik vaziyatini yaratadi. Mazkur pozitsiyalar, faoliyatning yangi tajribasini, muloqotni, atrofda voqelikni o'zlashtirish bilan bir qatorda, mediata'lim jarayonida interfaol ta'limning natijadorligi va samadorligiga ko'maklashadi.

Ma'lumki, interfaol norasmiy muloqot imkoniyatlari zamonaviy maktab o'quvchilari va talabalar tomonidan chatlarda va mobil telefonlar orqali juda faol o'zlashtirilmoqda. Zamonaviy telekommunikatsiya tarmoqlari, masalan, muloqot ishtirokchilariga real vaqt tartibida interfaol dialogga kirishish imkonini beradi. Interaksiya jarayonida forumlarda ishtirok etgan holda yangiliklar, filmlarni muhokama qilish, qiziqtirgan muammo bo'yicha o'z fikrini bildirish mumkin.

#### **- Xulosa va takliflar.**

Shunday qilib, media (mazkur holda – kompyuter texnikasi) nafaqat axborotni uzatish uchun ta'lim vositasi yoki stixiyali interfaol muloqotda kundalik texnik moslamani ifodalaydi, balki muayyan pedagogik vazifalarni hal qilishga ko'maklashadigan axborotni gipermatn vositasida taklif qiladigan ta'limiy multimedia muhitiga aylanib bormoqda. Mashg'ulotlarda talabalar mediakommunikativ bilimdonligini rivojlantirish bo'lajak pedagogik faoliyatni amalga oshirish



uchun asos bo'lgan tezkor tartib va o'zini tutish xarakterdagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni o'z ichiga oladi. Dialogga asoslangan mazkur shakldagi o'zaro ta'sir, zamonaviy ta'limda (nafaqat OTM, balki maktab ta'limida) ulkan istiqbollarga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Педагогический энциклопедический словарь/Гл.ред. Б.М.Бим-Бад. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2003. – 191 с.
2. Fedorov, Alexander. Russian Image on the Western Screen: Trends, Stereotypes, Myths, Illusions. Saarbrücken (Germany): Lambert Academic Publishing, 2011. 228 p.
3. Fedorov, Alexander. Modern Media Education Models // Acta Didactica Napocensia. 2011. V. 4. № 1. P. 73-82.
4. Иванов Д.А., Митрофанов К.Г., Соколова О.В. Компетентностный подход в образовании. Проблемы, понятия, инструментарий. Учебно-методическое пособие. Омск, Изд.-во ОмГПУ, 2003. – 7 с.
5. Jamoldinova O.R. Yoshlar sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlik tamoyillari amal qilishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish. Avtoref.ped.fan.dokt...diss. – Toshkent, 2015. – 86 b.
6. Критическое мышление и новые виды грамотности / сост. О. Варшавер. М.: ЦГЛ, 2005. 77 с. Критическое мышление, 2005.- 11 с.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 2017 yil 6 apreldagi 187-son qarori. <https://lex.uz/docs/3153714>
8. Как развивать критическое мышление (опыт педагогической рефлексии): метод. пособие / И.П. Валькова, И.А. Низовская, Н.П. Задорожная, Т.М. Буйских; под общ. ред. И.А. Низовской. Бийск: ФПОИ, 2005. – 40 с.
9. Галицкий Е.Б. Методы маркетинговых исследований. — М.: Институт Фонда «Общественное мнение», 2004. — 398 с.



|     |                                                                                                                                                                        |
|-----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 297 | <b>Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich,<br/>Nekboyev Xurshid Xoliyorovich</b><br>Mediata'lim amalga oshirishdagi zamonaviy metodlar tavsifi                               |
| 302 | <b>Tadjibayev Baxram Ruziyevich</b><br>Intellectual mehnat texnologiyalarida innovativlik va kreativlik                                                                |
| 307 | <b>Salimjonova Zarina Murodjon qizi</b><br>Bo'lajak mutaxassislarda ijodiy kompetentlikni rivojlantirishda xalq og'zaki ijodi namunalardan foydalanish metodikasi      |
| 310 | <b>Dilova Nargiza Gaybullayevna</b><br>Innovatsion ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy ta'lim trayektoriyasini loyihalash usullari                      |
| 314 | <b>Hotamova Maftuna Madatovna</b><br>Bo'lajak ingliz tili fani o'qituvchilarining o'quvchilarda til savodxonligi ko'nikmasini rivojlantirish usullari                  |
| 318 | <b>Musayeva Amina Karamatovna</b><br>Oliy ta'lim tizimida talabalarning kommunikativligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning dolzarbligi                   |
| 325 | <b>Ne'matova Flora Baxtiyor qizi</b><br>Xalqaro tadqiqotlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimni baholash                                                |
| 334 | <b>Polvonova Charos Bahromqulovna</b><br>Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari va o'qituvchi kompetentligiga qo'yilgan talablar |
|     | <b>10.00.00 – FILOLOGIYA</b>                                                                                                                                           |
| 340 | <b>Jo'raqulova Parizoda Otabek qizi</b><br>Linguistic connections of language and culture                                                                              |
| 344 | <b>Jo'rayeva Gulmira Zufarjon qizi</b><br>Tillarni o'qitishda veb-kvest texnologiyasining ahamiyati va xususiyatlari                                                   |
| 348 | <b>Omonova Dildora Nekmurodovna</b><br>Boshlang'ich sinf ona tili darsliklaridagi mashqlar tasnifi.                                                                    |
| 352 | <b>Qodirova Ro'zigul Sadulloyevna,<br/>Raxmatova Sabrina Otabek qizi</b><br>O'tkir xoshimov asarlari ruscha bevosita tarjimasiga xos lingvopoetik xususiyatlar         |
| 356 | <b>Raxmatova Mehriniso Musinovna</b><br>Implikatura: semantik ma'no va kontekstual ma'no munosabatlari                                                                 |
| 360 | <b>Yuldasheva Mashxura Muzafarovna</b><br>Qadriyatli yondashuv asosida talabalarda fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirish mazmuni                                   |
| 364 | <b>Отчет по результатам проведения международного конгресса<br/>«ПСИХОЛОГИЯ XXI СТОЛЕТИЯ»</b>                                                                          |